

IMOM ABU MANSUR AL-MOTRUDIY TALIMOTI

Ilmiy rahbar: Samatov X. U.

Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti Samarqand filiali

Muhiddinov Nurmuhammadxon
AX23-08 guruh talabasi

Annotatsiya:

Ushu bu maqolada imom Abu Mansur al- Motrudiyning hayoti va yozgan asarlari haqida va meroslari malumotlar yoritilib berilgan.

Kalit so'zlar: Islom, din, imom, fiqh, Qur'on, ilm, marifat.

Abu Mansur al-Moturidiy Samarqandning o'zidan ham, uning atrofidagi turli mazhab vakillari bilan olib borgan bahslarida ham muvaffaqiyat qozongan. U karramiylar, shialar va mo''taziliylar bilan munozaralarga kirishib, o'z asarlaridan birini ularning qarashlarini inkor etishga bag'ishlagan¹.

Moturidiy (Abu Mansur al-Moturidiy; Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud al-hanafiy al-Moturidiy as-Samarqandiy) (870-yil Samarqand – 944-yil Samarqand) – imom, fiqh olimi, kalom ilmining moturidiylik oqimi asoschisi. „Imom al-hudo“, „Imom al-mutakallimin“ („Hidoyat yo'li imomi“, „Mutakallimlar imomi“) nomlari bilan ulug'langan. Moturid qishlog'ida (hozirgi Jomboy tumanida) tavallud topib, to umrining oxirigacha shu yerda yashagan, bu yerda katta bog' ham barpo etgan².

Imom Abu Mansur al-Motrudiy ahli sunna val jamoa e'tiqod qiladigan ikki yirik maktab imomining biri, Hanafiy mazhabidagilarning aqida masalasida murojaat qiladigan Motrudiya madrasasining imomi. To'liq nomi Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud al-Hanafiy al-Moturidiy as-Samarqandiydir. Uning nomi daryoning yonidagi "Moturid" qishlog'iga nisbat berilgan. U zotning tavallud topgan yili tarixda zikr qilinmagan, lekin aytish mumkinki allomaning tavallud topgan zamoni Abbosiyalar xalifaligi davriga to'g'ri keladi. Abu Mansur al-Moturidiy dastlabki ta'limni shu qishloqda olib,

¹ Artikov M. A. Prosvezhyonnii islam – duxovnaya osnova edineniya /materials/rmforum/3/teo_artikov.htm |date=20160305015113 }} ID „Medina“.

² https://uz.wikipedia.org/wiki/Bosh_Sahifa

keyinchalik Movarounnahrning o'sha davrdagi diniy va ma'rifiy markazi bo'lgan Samarqandda davom ettiradi³.

Al-Moturidiy fiqh va kalom masalalari bilan qiziqib, Hanafiya mazhabi olimlaridan dars olib o'z bilimini oshiradi. Shu vaqt davomida ko'plab mashhur faqihlar va muhaddislar bilan muloqatda bo'lgan va munozaralar qilgan. Butun umri davomida shu sohaga oid asarlar yozib qoldirgandir. Mahmud ibn Sulaymon al-Kafaviyning (vafoti 1582 yil) "Katoib ul-a'lom al-axyor fi taboqot va mashaoyix mazhab an-Nu'mon" ("Nu'mon mazhabiga mansub bo'lgan taniqli alloma faqihlar va shayxlar haqidagi kitob") nomli kitobida al-Moturidiy va uning asarlari haqida ayrim ma'lumotlar beriladi. Masalan, quyidagi asarlari nomlari keltirilgan: "Kitab Tavhid" ("Allomani yakkalashlar kitobi"), "Kitab Maqomat", "Kitab rad avomil lil adila lil kabiy" ("Ka'biy zalolatlarining boshlanishini rad qilishga bag'ishlangan kitob"), "Kitab bayon va hum ul-mu'tazila" ("Mu'tazila g'avg'olari va undan qo'rqmaslik haqidagi kitob bayoni"), "Kitab Ta'vilot al-Qur'on" ("Kur'on ta'vili kitobi").

Lekin Hoji Xalifaning (1609–1659) "Kashf az-zunun an-asomil kutub va-l-funun" ("Kitob va fanlar nomlari haqidagi shubhalarni bartaraf etish kitobi") kitobida e'tirof etilishicha, yana Abu Mansur al-Moturidiyning "Ma hazi ash-shari'a" ("Shariat asoslari sarasi"), "Kitab al-jadal" ("Dialektika haqida kitob") kabi asarlari ham bo'lgan. Bulardan tashqari al-Moturidiyning "Kitab al-usul" ("Diniyta'limot usuli kitobi") asari ham ma'lum⁴.

Al-Moturidiy asarlarini quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. Kalom va munozara san'ati bo'yicha ishlar.
2. Usul ustida ishlaydi.
3. Tafsir va Qur'on ilmlari bo'yicha ishlar .
4. Buyruq (vasaya) va Allohg'a yuzlanish (munajah) bo'yicha ishlaydi.

Al-Moturidiy asarlaridan biz, xususan:

- „Ta'vilat al-Qur'on“ (arab. tāwylat əlqr̄Hn) – Qur'on sharhi .
- „Sharh al-fiqh al-akbar“ (arab. sh̄rh əlfqh əlākbr) – Abu Hanifa ning „Al-fiqh al-akbar“ risolasining tafsiri .
- „Ma'axiz ash-shar'iya“ (arabcha: mākd̄h alsh̄rā') fiqhga oid kitob.
- „Kitob al-maqalat“ (arab. kt̄b əlmq̄t) – kalom haqidagi kitob.

³ <https://sammuslim.uz/>

⁴ <https://bilimlar.uz/>





- „Kitob at-tavhid“ (arabcha: ktâb ältwâhyd – „Tavhid kitobi“) – moturidizm ta’limoti nuqtai nazaridan Islom asoslarini bayon qiluvchi kitob .
- „Radd awail al-adilla“ (arabcha: rd əwaŞı əlâdlî) – mo”taziliy Abu al-Qosim al-Kabi al-Balxiy ning „Avoil al-adilla“ asarining tanqidi .
- „Bayan vahm al-mo‘tazila“ (arab. byân whm əlm‘tzlî) – mo”taziliylarning qarashlarini tanqid qilish.
- „Ar-Radd ala usul al-karamita“ (arabcha: əlrd ‘ly əşwl əlqrâmuť) – qarmatiylarning qarashlarini tanqid qilish.
- „Radd kitob al-imoma li-ba’d ar-ravofida“ (arab. rd ktâb əlamamî lb‘L əlrwâfL) – shialarning qarashlarini tanqid qilish.

Ulardan bugungi kungacha faqat „Ta’vîlat ul-Quron“ va „Kitob at-tavhid“ kitoblari saqlanib qolgan⁵.

Quronning bir qator savollariga al-Moturidiy va uning izdoshlari ash’ariylar kabi javob berib, muqaddas matnlarning ratsional talqinini afzal ko‘rganlar: ular Qur’onni o‘zaro bog‘liq holda abadiy deb bilishgan. uning ma’nosiga ko‘ra va bu ma’noning og‘zaki ifodasi bilan bog‘liq holda vaqt o‘tishi bilan paydo bo‘lgan, solihlar bu ko‘rishning mohiyatini aniqlamagan holda, Allohni narigi dunyoda ko‘rishlari mumkin, deb ishongan, barcha insoniy xatti-harakatlar Xudo tomonidan yaratilgan va inson faqat o‘ziga mos keladi. (kasb) ularni o‘z irodasi va qobiliyati tufayli o‘ziga, Allohning asosiy sifatlari (ilm, qudrat va hokazo) haqiqiy va boqiy . Lekin ash’ariylardan farqli o‘laroq, al-Moturidiy Allohning asosiy sifatlarigina emas, balki amal sifatlarining ham abadiyligini tan olgan; Mo”taziliylar singari, u kishida ixtiyor erkinligi, jumladan, ikki qarama-qarshilik o‘rtasida tanlov bor, iymon diniy marosimlarga rioya qilishda emas, balki Allohni og‘zaki tan olishda ekanligiga ishongan⁶.

Al-Moturidiy ta’limoti Mavarinoniyan hanafiylar orasida tarqaldi.

Abu Mansur al-Moturidiy Samarqandning o‘zidan ham, uning atrofidagi turli mazhab vakillari bilan olib borgan bahslarida ham muvaffaqiyat qozongan. U karramiylar, shilar va mo”taziliylar bilan munozaralarga kirishib, o‘z asarlaridan birini ularning qarashlarini inkor etishga bag‘ishlagan⁷.

⁵ https://uz.wikipedia.org/wiki/Bosh_Sahifa

⁶ Imam-i Maturidi // İslam alimleri ansiklopedisi. Türkiye Gazetesi. İstanbul, 1984. C. 4. S. 201

⁷ Tafsir va Qur’on ilmlari bo‘yicha ishlar .



Biz — moturidiylar uchun yaxshi bilib, doimo nazarda tutib yurish zarur bo‘lgan bir necha muhim masalalar bor. Ular quyidagilardan iborat:

1. Moturidiya aqidasi bilan Ash’ariya aqidasi o‘rtasida bir necha masalalarda qarama-qarshiliklar bor. Ularni ba’zi olimlar 15 ta, boshqalari 40 ta, hatto, 50 tagacha sanab yetkazganlar. Ulardan asosiyilari — Allohning sifatlarini zotiy va fe’liy sifatlarga bo‘lish, sifatlari ayni zotmi yoki g‘ayri zotligi, Muso (a.s.) Allohning kalomini bevosita eshitganmi yoki bilvositami, iroda bilan rizo birmi yoki tafovutlimi, Allohni ko‘rish joizligiga Ash’ariy aqliy dalil keltirgan, Moturidiy naqliy, qabih ishning sodir etilishi bandadanmi yoki u ham Allohdanmi — bunga Moturidiy husnu qubh hammasi Allohdan, faqat behikmat emas, deydilar. Inson o‘z toqatidan tashqari ishga taklif etilishi mumkin, deb Ash’ariy, mumkin emas, deb Moturidiy aytadilar. Shuningdek, Allohni aql bilan tanish vojibmi yoki naql bilanmi degan masalada Moturidiy aql bilan deganlar. Imon bilan islom bir narsa ekani, baxtli va baxtsiz insonlar oxir-oqibatda o‘zgarib-almashib qolishlari mumkinligi, qilinadigan yaxshi va yomon amallar bandaning kasbi va Allohning yaratishi bilan hosil bo‘lishi, muqallidning imoni maqbul ekani, imonning o‘zi emas, balki uning nuri, quvvati ortib yoki kamayib turishi, imonning ruknları ikkita, ya’ni iqror va tasdiqdan iborat ekani, amallar imon tarkibiga kirmasligi, balki savoblar va gunohlar alohida hisobga olinishi kabi masalalarda Imom Ash’ariy bizning moturidiya aqidamizning xi洛fini taqrir etganlar.

2. Moturidiyaning mo‘tazila aqidasidan farqlari.

Avvalo, bilmox kerakkim, diniy fanlar qatoriga kalom ilmining kirishiga asosiy sabab shu mo‘tazila toifasining aqliy munozaralari va qarshiliklari bo‘lgan. Ular ash’ariya yoki moturidiya kabi aqlni naqliy dalillardan keyinga emas, balki birinchi o‘ringa qo‘yganlar. Aql va fikrni asosiy manba qilib olib, unga to‘g‘ri kelmassa, hatto, oyat va hadislarni inobatga olmay, balki nususni aqlga bo‘ysundirmoqchi bo‘lganlar. Shuning uchun ham Shayx Moturidiy hazratlari boshqa oqimlarga qaraganda ko‘proq mo‘tazila firqasining fikrlariga qarshi raddiyalar bilan chiqqanlar. Ularning aqliy va fikriy dalillarini rad qilish uchun buyuk hamyurtimiz kalom ilmi bilan shug‘ullanishga to‘g‘ri kelgan va u zot shu uslub bilan Ahli Sunna aqidasini himoya qilishga muyassar bo‘lganlar.

Mo‘tazila firqalarining moturidiya aqidasiga zid qarashlari, asosan, quyidagi nuqtalarda o‘z aksini topadi.

Ular aytadilar:

1. Allohning ismi va sifatlari azaliy emas, ular hech qanday ma’no va mazmunga ega emas. Allohning ismi bilan sifatlari bir narsa.



2. Allohni bu dunyoda ham, oxiratda ham ko‘rish mumkin emas.
3. Qur’on — mahluq. U azaliy emas.
4. Bandaning foydasini ko‘zlab ish qilish Allohning zimmasiga vojib.
5. Bandaning qudrati va toqati Allohga bog‘liq emas. Fe’llarni bandaning o‘zi yaratadi.
6. Qatl etilgan kishi ajalidan oldin o‘lgan bo‘lur.
7. Halol — rizq, lekin harom — rizq emas.
8. Allohning irodasi hodisdir, qadim emas.
9. Alloh faqat yaxshilikni iroda qilur. Yomonlik uning irodasidan tashqaridir.
10. Amallar imonning tarkibiga kirur. Balki amal imonning asosiy ruknidir.
11. Imon ozayib, ko‘payib turuvchi narsadir.
12. Gunohi kabira qilgan musulmon imon bilan kufr o‘rtasida qolur.
13. Kabira egalari do‘zaxda abadiy qolurlar.
14. Shafoat faqat yaxshi odamlarga nisbatan qilinur. Gunohlarni hech kim shafoat etmas.
15. Jannat bilan do‘zax hanuz yaratilmagan.
16. Qabrdagi azob yoki rohat, qiyomat tarozusi, Pulsirot, Havzi Kavsar kabilarning hammasi yo‘q narsa.
17. Avliyolarda hech qanday karomat bo‘lmaydi.
18. Muqallid (boshqalarga taqlidan musulmonman deb yuruvchi odam) ning imoni qabul qilinmaydi.

Zikr etilgan nuqtalardan ko‘rinib turibdiki, mo‘tazila firqasi bizning moturidiya aqidamizga xilof ravishda alohida nazariyaga asos solganlar. Nozik va qaltis joyi shu yerdaki, mazkur 18 bandda aytib o‘tilgan narsalarda ancha-muncha aqli, ziyolilar, hatto, ulamolar ham chalg‘ib ketishlari hech gap emas. Shuning uchun ham o‘zimizning sunniy, hanafiy, moturidiy aqidamizga oid kitoblarni ko‘p mutolaa qilish va dilga jo etish eng zarur ishlardandir.

3. Sunniy-hanafiy musulmonlar yana shuni yaxshi bilib olishlari kerakki, hanafiy mazhabimizga hasad qilganlaridek, moturidiya aqidamizga ham hasad ko‘zi bilan qarash, uning sha’niga tuhmat-bo‘hton yog‘dirish jarayoni hali hanuz to‘xtagan emas. Aqida faniga oid yozib kelinayotgan asarlarni mutolaa qilib ko‘rsangiz, buning guvohi bo‘lasiz. Ayniqsa, arab dunyosida nashr qilinayotgan asarlarning deyarli 90 foizida moturidiya aqidasini buzib ko‘rsatishlar, hatto, uni Ahli Sunna jamoatiga qo‘shmagan holda zikr qilishlar, ash’ariya aqidasini esa, mutlaqo kamchiliklarini ko‘rsatmaslik, balki uni yagona to‘g‘ri aqida deb talqin qilishlar uchrab turibdi. Bunga misol qilib Riyozlik arab yozuvchisi Ahmad ibn



Avazulloh ibn Doxil al-Luhaybiyning «Al-Moturidiya dirosatan va taqviman» nomli kitobi, Doktor Mahmud Qosimning «Muqaddimat Ibnir-Rushd» kitobi, Vahiduddinxon, Abdulhalim Qunbus, Fathiy Yakan, Abduljabbor («Al-Mug‘niy» muallifi) kabi yozuvchilarning asarlari, «Sharhul-usulil-xamsa» kitobi va boshqalarni keltirish mumkin.

Lekin o‘zlari arab yoki g‘arb yozuvchilari bo‘la turib, moturidiya haqida insof bilan haqiqatni yozgan olimlar ham mavjudligi kishini quvontiradi. Bunga Shayx Moturidiy va uning ilmi kalomga oid fikrlari to‘g‘risida kattagina bir kitob yozgan arab olimi Doktor Ali Abdulfattoh al-Mag‘ribiyni, Abu Mansur qalamiga mansub «at-Tavhid» kitobini tahqiq etib, nashrga tayyorlagan olim Doktor Fathulloh Xulayf va nemis olimi Ulrix Rudolfni misol qilib keltirsa bo‘ladi. Ular shayx Abu Mansur Moturidiy va uning merosini xolisona baholaganlar⁸.

O‘zbekistonda Moturidiy merosini o‘rganishga faqat mustaqillikdan keyingina kirishildi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan 2000-yilda Moturidiy tavalludining 1130-yilligi O‘zbekistonda keng nishonlandi. O‘zbekiston prezident I. A. Karimov tashabbusi bilan Samarqandda alloma xotirasiga yodgorlik majmui bunyod etildi. Toshkent va Samarqandda Moturidiy ta’limoti va uning islom olamida tutgan mavqeiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy anjumanlar o‘tkazildi. Moturidiy hayotining turli qirralarini yorituvchi maqolalar, risolalar va tadqiqotlar chop etildi. Moturidiy merosini o‘rgangan xorijlik olimlar bilan samarali hamkorlik aloqalari o‘rnatildi. 2001-yilda Go‘ttingen (Germaniya) universitetining professori Rudolf Ulrich qalamiga mansub „Al-Moturidiy va Samarqand sunniylik ilohiyoti“ kitobi o‘zbek tilida nashr etildi.

FOYDALANILGAN ADABITOLAR:

1. Al-Moturidiy ta’limoti va uning Sharq xalqlari madaniyatidagi o‘rni. Ma’ruzalar to‘plami, T., 2000;
2. Karimov I. A., Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz Imom Moturidiy tavalludining 1130-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlangan nutq, 9-j, T., 2001;
3. Kattayev K., Imom al-Moturidiy va Chokardiza, Samarqand, 2000;
4. Mansur A., Al-Moturidiy ta’limoti, T., 2003;
5. Ziyodov Sh., Al-Moturidiy hayoti va merosi, T., 2000.
6. Uvatov U., Imom al-Moturidiy va uning ta’limoti, T., 2000;

⁸ <https://islom.ziyouz.com/aqid/abu-mansur-al-moturidiy>



7. Imam-i Maturidi // İslam alimleri ansiklopedisi. Türkiye Gazetesi. İstanbul, 1984. C. 4. S. 201
8. Artikov M. A. Prosvetnyonniy islam – duxovnaya osnova edineniya /materials/rmforum/3/teo_artikov.htm |date=20160305015113 } } ID „Medina“.
9. <https://bilimlar.uz/>
10. <https://uz.wikipedia.org/>
11. <https://islom.ziyouz.com/aqoid/abu-mansur-al-moturidiy>
12. <https://islom.ziyouz.com/aqoid/abu-mansur-al-moturidiy>
13. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Moturidiy>
14. Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – C. 175-179.
15. Samatov, Khurshid. "Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society." Theoretical & Applied Science 2 (2016): 175-179.
16. Samatov, K. (2016). Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society. Theoretical & Applied Science, (2), 175-179.
17. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction. – 2021.
18. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction." (2021).
19. Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction.
20. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani) //European Scholar Journal. – 2021. – T. 2. – №. 11. – C. 45-48.
21. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani)." European Scholar Journal 2.11 (2021): 45-48.
22. Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani). European Scholar Journal, 2(11), 45-48.